



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Shaxlo Sharipova Sadullaevna**

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika va psixologiya kafedrasi dosenti

## **PEDAGOGIKA KOLLEJI RAHBARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI BOSHQARUV KOMPETENTSIYASI**

**Annotasiya.** Maqola zamonaviy menejmentning dolzarb muammolaridan biri rahbar kadrlarda boshqaruv kompetentsiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan. Bunda rahbar kadrlarning faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida boshqaruv kompetentsiyalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv resurslari, boshqaruv kompetentsiyalari, rahbar resurslari, shaxsiy, guruhiy.

Belgilangan maqsadlarga erishish va ishlab chiqilgan rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish rahbar kadrlar salohiyatiga bog'liq. Tajribali menejerlarning faoliyatishuni ko'rsatadiki ularning aksariyati faqat o'z kuchlari, aqlari va sezgilariga tayanib muvaffaqiyatga erishdilar. Hozirda rahbar kadrlarlarning shaxsiy samaradorligi va boshqaruv kompetentsiyalarni namoayon bo'lishini Li Yakokka, Genri Ford, Akio Morita va boshqalar menejerlar tajribasida ko'rish mumkin. Rahbar kadrlarning kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy boshqaruv kompetentsiyalarini shakllantirish davalat fuqarolik xizmatida faoliyat yuritayotgan har rahbar kadr uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida o'z resurslariga - shaxsning psixologik

xususiyatlariiga, xarizmasiga, bo‘ysunuvchilar bilan o‘zaro munosabat uslubiga va albatta shaxsiy tajribaga, o‘rganilgan texnikaga tayanadi. Shu bilan birga unga va unga ishonib topshirilgan jamoaga yuklatilgan vazifalarni hal qilish uchun menejer o‘z bo‘ysunuvchilari o‘z jamoasining resurslaridan foydalanadi: kompaniyaning tashkiliy madaniyat xususiyatlari, bo‘ysunuvchilarning ishonchi, umumiyligini qadriyatlar va jamoada shakllangan munosabatlar tizimiga tayanadi.

**Rahbar resurslari** - shaxsga xos bo‘lgan psixologik jarayon bo‘lib, bunda shaxsiy va guruhiy resurslar mavjud; shaxsiy xarizma, sog‘liq, aql, etakchilik salohiyati, muloqot uslubi, shaxsiy fazilatlar, vakolatni uzatish mahorati, rejalashtirish, vaqt ni boshqarish va boshqalar. Guruxiy munosabatlar tizimi, jamoada ishlash istagi, hamjihatlik, ishonch norasmiy etakchilik.

Texnologik usullar, texnikalar va boshqalar, to‘liq xabardorlik bilan foydalilanligi va o‘rganish mumkin bo‘lgan tajribalar. Shaxsiy - muloqot texnologiyalari, ta’sir usullari, rahbarlik pozisiyasi guruhiy qadriyatlar tizimi, umumiyligini maqsad, guruhdagi o‘zaro, munosabatlar qoidalari, tashkilot madaniyati normalari.

Liderlik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Ronald Riggio boshqaruv kadrlari bo‘yicha zarur bo‘lgan 10 ta kompetentsiyani alohida ajratib ko‘rsatadi.[1] ular jumlasiga ijtimoiy intellekt, shaxslararo ko‘nikmalar, hissiy ko‘nikmalar va aql-idrok, ehtiyojkorlik, jasorat, nizolarni boshqarish, qaror qabul qilish, siyosiy bilimlar, ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalari kabi kompetentsiyalar kiritilgan.

Zamonaviy menejmentning M.B Kurbatov, M.I Magura va V.V. Travin kabi tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra [2] muvaffaqiyatli rahbarlik uchta asosiy omilga asoslangan: istak, tushunish va imkoniyat. Istak - butun tashkilot ishini yaxshilash uchun motivasiya bilan belgilangan maqsadlar bilan bog‘liq. Tushunish - bu sizning maqsadlaringizga erishish uchun nimani va qanday qilishni bilishingiz. Bu odamlar tashkilotda ishlash tajribasi natijasida ham, o‘qitish natijasida ham paydo bo‘ladi. Tashkilotda inson xatti -harakatlarining asosiy namunalarini bilish.

Imkoniyatlar - bu bir tomondan faqat moddiy imkoniyatlarning mavjudligi (moliya, jamoaning intellektual salohiyati, noyob texnologiyalar va boshqalar), ikkinchidan, rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi ishonch va hamkorlik darajasi. Istak, tushuncha va imkoniyat nafaqat boshqaruv jarayoni sodir bo‘ladigan jihat, balki tashkilotning maqsadlarini hisobga olgan holda menejment va kadrlar bo‘yicha mutaxassislar tomonidan shakllangan va maqsadga muvofiq qo‘yilgan kelajakdagiligi muvaffaqiyat uchun asosdir. Ushbu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish xodimlarni boshqarish qoidalari, tamoyillari va texnologiyalari bilan izchil tanishishni talab qiladi. Rahbarning boshqaruv salohiyati haqida gapirganda birinchi navbatda boshqaruv kompetentsiyalarining rivojlanish darajasini baholash kerak. Ko‘p jihatdan rahbar kadrlarning kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydigan eng muhim boshqaruv kompetentsiyalari yillar davomida shakllanib boradi. Menejment bo‘yicha mutaxassislar g.Kuntsva S.Donnel [3] vazifaning mohiyatini

(muvofiglik tamoyili) hisobga olgan holda ijrochilarni tanlash muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, vakolatlarni samarali topshirish uchun mukofotlash tizimi zarur. Doimiy ravishda ochiq aloqa yo'nalishlari bo'lishi shart: menejer va bo'ysunuvchi o'rtasida erkin ma'lumot almashinushi bo'lishi kerak, bu orqali ijrochi qaror qabul qilish va topshirilgan vakolatlarning mohiyatini to'g'ri anglash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni oladi. Tamoyilning amaliy ahamiyati shundan iboratki, rahbar kadrlar o'z vaqtini unchalik murakkab bo'lmanan kundalik ishlardan, odatiy ishlardan xalos qiladi va kuchlarini yanada murakkab boshqaruv darajasidagi muammolarni hal qilishga yo'naltirishi mumkin. Shu bilan birga, rahbar kadrlar uchun juda muhim bo'lgan, boshqaruv kompetentsiyalari standartiga muvofigligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, vakolatlarni berish tamoyilidan foydalanish xodimlarning malakasini oshirishning maqsadli shakli bo'lib, ular faoliyatining rivojlantirishga, tashabbuskorlik va mustaqillikning namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa qilish mumkinki, rahbar kadrlar boshqaruv faoliyatini ta'minlovchi kompetentsiyalarni o'z yoshlariga muvofig tarzda va ba'zan hatto mehnat faoliyati zaruratidan emas, balki shaxsiy ruhiy to'kinlik hissiga ega bo'lish uchun zarur deb topar ekanlar, y'ni ushbu payt kompetentsiya yosh rahbarning o'zini butun, yaxlit va to'kin his etish uchun xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari yosh rahbar kадarlarga bilim berishda, qayta tayyorlash va malka oshirish kurslari faoliyati va o'quv dasturlarini tashkillashtirishda yorlam beradi. Bundan tashqari, boshqaruv sohasida faoliyat yurituvchi psixologlar tomonidan yosh rahbarlarga ko'rsatiladigan psixologik maslahatlashuv sharoitlarida ham inobatga olinishi lozim. Rahbar kadrlarning samarali faoliyatini ta'minlovchi eng muhim kompetentsiya sifatida boshqaruv mahorati, ya'ni rahbar ega bo'lish lozim bo'lgan boshqaruv ko'nikmalarini e'tirof etiladi. Darhaqiqat, har qanday boshqaruv avvalambor rahbardan menejmentga oid umume'tirof etilgan va zaruriy boshqaruv ko'nikmalarini talab qiladi. Avvalambor bu qatorda asosiy boshqaruv ko'nikmalarini bo'l mish 1. Maqsad qo'yish; 2. Rejalashtirish; 3. Faoliyatni rejalashtirish; 4. Xodimlar ustidan nazoratni amalga oshirish va 5. Xodimlarni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Bu birlamchi malakalarsiz hech qanday boshqaruvni amalga oshirish mumkin emas [4].

Rahbar shaxsiga xos xislatlar haqida gap ketar ekan, shaxsnинг kasbiy muhim va professional jihatlarini aniqlashda bevosita maqsadli guruhga murojaat etish o'rinni. Shu o'rinda, rahbarlik faoliyatida yosh rahbarlarga nimalar muhimligini o'rganish maqsadida kompetentsiyalar ro'yxatini saralash bo'yicha maxsus usullar ishlab chiqish lozim.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Top 10 Leadership Competencies. // <https://www.psychologytoday.com/us/blog/cutting-edge-leadership/201404/the-top-10-leadershipcompetencies>.
2. А. Б. Камалетдинова. Управленческие компетенции руководителя как фактор создания конкурентного преимущества организации. // Электронный журнал

«Психологическая наука и образование» 2010, № 5/ [www.psyedu.ru](http://www.psyedu.ru) / ISSN: 2074-5885.

3. Камалетдинова А. Б. Управленческие компетенции руководителя как фактор создания конкурентного преимущества организации. // Электронный журнал «Психологическая наука и образование» 2010, № 5/ [www.psyedu.ru](http://www.psyedu.ru) / ISSN: 2074-5885.
4. Ёш раҳбар кадрларнинг бошқарув салоҳиятини баҳолаш. Монография. / Муаллифлар жамоаси: А.Холов, И.Махмудов, Ш.Кадирова, Г.Бекимбетова ва бошқ. – Т.: «Янги китоб» нашриёти , 2020. 192-б.